

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30/012022 Ped.26.01RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XUDOYNAZAROVA SHAXZODA TURSUNOVNA**

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNING TAYANCH  
HARAKATLARINI XOREOGRAFIYA SAN'ATI ORQALI  
RIVOJLANTIRISH**

**13.00.03 – Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Xudoynazarova Shaxzoda Tursunovna**

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini  
xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish..... 3

**Худойназарова Шахзода Турсуновна**

Развитие опорных движений учащихся с ограниченными  
возможностями посредством хореографического искусства..... 23

**Khudoynazarova Shahzoda Tursunovna**

Mechanisms of development of basic movements of students with  
disabilities through the art of choreography..... 44

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30/012022 Ped.26.01RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**XUDOYNAZAROVA SHAXZODA TURSUNOVNA**

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNING TAYANCH  
HARAKATLARINI XOREOGRAFIYA SAN'ATI ORQALI  
RIVOJLANTIRISH**

**13.00.03 – Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped.3704 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xakimova Muxabbat Fayziyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Karlibaeva Guljaxan Ermekbaevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.01.2022. Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; ye-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**B.S.Abdullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

**D.Yakubjanova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida imkonivati cheklangan o'quvchilarning psixik-psixologik holati va tayanch harakatlari i xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish mexanizmlari ta'lim jarayonlariga tatbiq etilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning jamiyatdagi faolligini yanada oshirish va rivojlantirish, Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun"<sup>1</sup> dasturi asosida inklyuziv ta'limni keng joriy etish hamda imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini musiqa va xoreografiya san'ati uyg'unligini ta'minlash asosida rivojlantirish, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish bo'yicha tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish, his-tuyg'ularni plastik vositalar yordamida ifoda etish, raqs yordamida qo'rquv va o'ziga ishonmaslik hislarini kamaytirish, koordinatsiya va reaksiya tezligini rivojlantirish, xoreografiyadan estetik tarbiya vositasi sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Auditoriyadan tashqari ishlar tizimini yaratish, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlari, madaniy tafakkurini rivojlantirish, xoreografiya san'ati orqali kasbiy bilim, ko'nikma va hayotiy malakalarini shakllantirish, mustaqil ishlarni tashkil etishning innovatsion vositalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish hamda xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan o'qitishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish; har bir bolaga o'zining shaxsiy tempiga mos ravishda rivojlanish huquqini ta'minlash; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning madaniyat, san'at, sport va boshqa yo'nalishlarda erishgan yutuqlari to'g'risida targ'ibot tadbirlarini o'tkazish"<sup>2</sup> ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayot va mehnat faoliyati integratsiyasi asosida jamiyatdagi faollikni oshirish, o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirishning adaptiv metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" O'RQ-641-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmonlari, O'zbekiston

---

<sup>1</sup> Дакарские рамки действий. Образование для всех: выполнение наших общих обязательств // Текст, принятый Всемирным форумом по образованию Дакар, Сенегал, 26-28 апреля 2000 г. – Париж, 2000. – С.18.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-4860-son. 2020-jil 13-oktyabr'. Qonun hujjatlari ma'lumotlari millij bazasi, 14.10.2020-y, 07/20/4860/1383-son.

Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi** Alohida ta’limiy ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish uchun pedagoglarning maxsus kasbiy sifatlarini shakllantirish masalalari L.Mo‘minova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, Y.Chicherina, L.Nurmuxamedova, N.Raxmonkulova, Z.Mamarajabova, F.Qodirova, U.Fayziyeva, X.Akramova, Sh.Amirsaidova, V.S.Raxmonova, N.Musayeva, R.Sh.Shomaxmudova, M.F.Xakimova, M.P.Xamidova; bo‘lajak defektolog kadrlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlash D.Yakubjanova, M.Maxmudova, F.Teshaboyeva, X.Raximova, N.Abidova, L.Xayitov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida imkoniyatlari cheklangan bolalar tarbiyalanayotgan oilalardagi shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirish, tayanch harakatlarini rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashtirish masalalari A.Gamayunova, E.Morshinina, I.Bagdasaryan, N.Galimova, V.Degtyarova, E.Denisova, B.Karvyalis, S.Konoplyastaya, N.Moskolenko, E.Firsova, T.Pavlenko, N.Ryabova, T.Starichenko, M.Sarsidze va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Imkoniyatlari cheklangan bolalar ta’lim va tarbiyasi, tayanch harakatlarini xoreografiya san’ati orqali rivojlantirish, mazkur o‘quvchilar oilasidagi psixologik muammolar, aqli zaif bolalarda ijtimoiy tajriba, oilaviy hayot bilan bog‘liq malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari B.Baker, O.Speck, K.E.Bauman, M.A.Feldman, R.Lempp, U.Preuss-Lausitz, B.Spock, E.Spratt kabi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170923124-raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020-yy).

**Tadqiqotning maqsadi** imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san’ati orqali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya mashg'ulotlari va ritmik harakatlarni rivojlantirish asosida takomillashtirish;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirishning korreksion-pedagogik modelini takomillashtirish;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni to'plangan bo'lib, tajriba-sinovga Toshkent viloyati Ohangaron shahridagi 7-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab, Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 100-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat, Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 52-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat, Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi 5-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatdan 192 nafar o'quvchi va 29 nafar o'qituvchi jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy va metodik adabiyotlarni tahlil; suhbat va anketa; kuzatuv va defektologlarning metodik faoliyatini tizimli tahlil; tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarni sifat, miqdor jihatidan hamda qiyosiy tahlil; matematik statistika metodlari: ma'lumotlarni jadvallarda berish va grafik tasvir, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish imkoniyatlari fiziologik dinamikani qiyosiy baholash, nuqsonlarni korreksiyalash, aqliy funksiyalarni jismoniy o'zgarishlar ta'sirchanligiga moslashtirish hamda fiziologik yoshga bog'liq rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish asosida aniqlangan;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish jarayoni xoreografik epizodlarni o'rgatishga qaratilgan fotolavhalardan foydalanish hamda ta'lim muhiti intensivligini ta'minlashga qaratilgan korreksion-ritmik terapiyani bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirish modeli o'zini o'zi nazorat qilish, ruhan va fiziologik rivojlantirish, tinglab yoki ko'rib tushunish hamda harakatlanish trayektoriyasini aniqlashga qaratilgan hissiy holatni barqarorlashtirish va artikulyatsiya a'zolari harakatini ritmik faollashtirish asosida takomillashtirilgan;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarni xoreografik mashg'ulotlar orqali rivojlantirish samaradorligi ritmik harakatlar izchilligini dinamik muvofiqlashtirishga

yo'naltirilgan ijodiy-psixologik mikromuhitni bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan;

tadqiq etilayotgan toifadagi o'quvchilarga ta'lim berish bo'yicha enerjayer trening majmui ishlab chiqilgan, tadqiqot doirasida alohida Web-sayt, Telegramm, Instagram, Twitter, Facebook rasmiy kanal va sahifalari takomillashtirilgan;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish texnologiyalari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llangan yondashuv, usul va ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchi-defektologlarning ishlariga asoslanilgani, tadqiqot vazifalariga mos va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot usullari qo'llangani, tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nogironligi bo'lgan o'quvchilarning tayanch harakatlarini o'zida o'zi takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalar bilan o'zaro harakatni rejalashtirish va amalga oshirishning muhimligini tushunish – motivatsion; imkoniyati cheklangan bolalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etish sohasiga doir aniq bilimlarga egalik, yangi axborotlarni o'zlashtirish usullari – kognitiv; o'zaro nutqiy rivojlanish, noverbal ko'nikmalar, birgalikdagi faoliyatni loyihalashtirishning tavsifiy va mantiqiy-tashkiliy; imkoniyati cheklangan bolalar bilan o'zaro hamkorlikdagi harakatda refleksiv ko'nikmalarining ifodalanishi va namoyon bo'lishi (emotsional hissiyotning adekvatligi, o'zini o'zi tahlil etish, o'zini o'zi baholash, harakatlarni muvofiqlashtirish, tanqidiylik) – refleksiv darajasining aniqlashtirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, qo'lga kiritilgan natijalar umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish; pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarida imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida xoreografik mashg'ulotlar o'tish bo'yicha o'quv modullarining metodik ta'minotini yaratish; tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirish texnologiyasidan pedagogika oliy ta'lim muassasalari, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar:

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish imkoniyatlarini fiziologik dinamikani qiyosiy baholash,

nuqsonlarni korreksiyalash, aqliy funksiyalarni jismoniy o'zgarishlar ta'sirchanligiga moslashtirish hamda fiziologik yoshga bog'liq rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish asosida aniqlash bo'yicha tavsiyalar "O'zbek xoreografiya san'ati namunalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan berilgan 302-0193-raqamli guvohnoma). Natijada, xoreografik mashg'ulotlar orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirish imkoniyati yaratilgan;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish jarayonini xoreografik epizodlarni o'rgatishga qaratilgan fotolavhalardan foydalanish hamda ta'lim muhiti intensivligini ta'minlashga qaratilgan korreksion-ritmik terapiyani bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "O'zbek xoreografiya san'ati namunalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan berilgan 302-0193-raqamli guvohnoma). Natijada, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografik mashg'ulotlar orqali o'stirish, ruhan va fiziologik rivojlantirish texnologiyasining metodik ta'minotini takomillashtirishga erishilgan;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirish modelini o'zini o'zi nazorat qilish, ruhan va fiziologik rivojlantirish, tinglab yoki ko'rib tushunish hamda harakatlanish trayektoriyasini aniqlashga qaratilgan hissiy holatni barqarorlashtirish va artikulyasiya a'zolari harakatini ritmik faollashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "O'zbek xoreografiya san'ati namunalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan berilgan 302-0193-raqamli guvohnoma). Natijada, ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlar va inklyuziv ta'lim muassasalarida xoreografik mashg'ulotlar va ritmik harakatlarga o'rgatishning metodik shartlarini diagnostika qilish samaradorligiga erishilgan;

imkoniyati cheklangan o'quvchilarni xoreografik mashg'ulotlar orqali rivojlantirish samaradorligini ritmik harakatlar izchilligini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan ijodiy-psixologik mikromuhitni bosqichma-bosqich shakllantirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "O'zbek xoreografiya san'ati namunalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan berilgan 302-0193-raqamli guvohnoma). Natijada, xoreografik mashg'ulotlar orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyasida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy

nashrlarda 8 ta maqola, shundan 6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 126 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya mashg'ulotlari orqali rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida madaniy tafakkurning shakllanishi va fuqarolik jamiyati rivojlanishining xoreografiya san'ati bilan o'zaro aloqadorligi, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va metodik xususiyatlari, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda xoreografik mashg'ulotlar o'tilishining mavjud holati tahlili bayon etilgan.

Raqs san'ati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ijodiy obrazlarni yaratishning asosiy vositasi sifatida o'ziga xos ifoda, ya'ni tilni tashkil etuvchi inson tanasining harakatlari va pozitsiyalaridan foydalanadi. Ushbu tilning kelib chiqishi asl hayotda tug'ilgan xarakterli harakatlar va plastik intonatsiyalar bilan bog'liq. Ma'lumki, kundalik muloqotda odamlar nafaqat so'zlar tilidan, balki harakatlar tilidan ham foydalanadi. Harakatlar, ularning xarakteri, dinamikasi, ko'lami, odamning holatiga qarab, uning hissiy holati, atrofdagilarga munosabati, ularga ta'sir o'tkazish istagi va xatto shaxsiy xususiyatlari va kasbiy mansubligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Aytish mumkinki, harakatlar tilining har bitta "birligi" alohida ma'lumot, ya'ni alohida ma'noni ifoda etadi.

Xoreografiya san'ati uzoq yillik rivojlanish tarixiga ega bo'lgan universal insoniy hodisa. Uning kelib chiqishi odamning ritmik harakatga bo'lgan to'siqsiz istagi, harakat va musiqani uyg'un ravishda bog'lab, o'z his-tuyg'ularini plastik vositalar yordamida ifoda etish zarurligiga asoslanadi. Xoreografiya san'atining shakllanish tarixi – bu insoniyat madaniyati evolutsiyasi, har bir davrning ijtimoiy xususiyatlari, xalq raqs san'ati tarixining turli davrlari va xalqlarning o'qituvchi-xoreograflari va ijrochilarining amaliy faoliyatida ko'rish mumkin. Xoreografiya ajoyib psixoterapiya vositasidir. Raqs, ayniqsa, qo'rquv yoki o'ziga ishonmaslik hissi kuchayganlar, shuningdek, depressiyaga moyil bo'lganlarga tavsiya etiladi. Hajmi jihatidan kichik, xarakteri jihatidan har xil bo'lgan raqs elementlari harakatlarni tanlashda o'quvchilar uchun ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu holat koordinatsiya

va reaksiya tezligini mashq qilish, bolalarda plastikani rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Xoreografiya mashg'ulotlarida raqs bilan shug'ullanish jarayonida bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilash o'quvchilarning jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda professional xoreografik texnikaga asoslangan bo'lishi kerak.

Xoreografiya mashg'ulotlari zarur fazilatlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Xoreografiya tiplari tarixiy davrlarga qarab o'zgarib turadi. Davrlar almashinishi bilan xoreografiyada ham sifat o'zgarishlari yuz beradi. Konkret tarixiy davrda yashagan kishilarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, bilimi, ma'naviy qadriyatlari to'g'risida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishimiz uchun biz shu davrning xoreografiyasiga murojaat qilishimiz lozim. Shuning uchun san'atshunoslik fani jahon madaniy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida turli xalqlar xoreografiyasining rivojlanish tarixini o'rganish bilan birga aniq tarixiy davrning ijtimoiy taraqqiyotda o'rin tutgan ma'naviy rivojlanish bosqichlari, umumiy qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini ham o'rganadi.

Xoreografiya san'ati muhim tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Insonda ziyolilik hissini tarbiyalash kursning diqqat markazida turadi. Kishi qancha ziyoli bo'lsa, – degan edi D.S.Lixachyov, – u shuncha ko'p tushunadi va o'zlashtiradi, mushtaraklikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'irlab turadi. Xoreografiya esa insonni estetik tarbiyalaydi. Amerikalik olim Sharon W. Goodillning “Jismoniy va intellektual nogironligi bo'lgan shaxslar uchun raqs/harakat terapiyasi: ilhomlantiruvchi ifoda” nomli kitobida takliflar ishlab chiqilgan va olim taklif etgan usullardan jismoniy va aqliy jihatdan murakkab nogironligi bo'lgan shaxslarga raqs-harakat terapiyasida (DMT (dori): bu toksik moddaning ta'siri va mexanizmi, “tana massasi kamomadi”) mutaxassislar qo'llashi lozim bo'lgan usullar berilgan. Ushbu ta'lim tajribasining bir qismi bo'lgan ko'plab shaxslar nogironlar aravachasidan foydalanuvchilar hisoblanib, ularga ikki tomonlama tashxis qo'yilgan; ammo ular hali ham harakat orqali hayotni boshdan kechirishga qodirlar. Ushbu usullar sakkiz oy davomida ularning yashash joyida bo'lib o'tadi. “O'zimning ma'lumotlarimni to'plash orqali men bu aholini DMT quvvatida qo'llab-quvvatlash uchun cheklangan miqdordagi manbalar mavjudligiga xulosa qildim. Men o'z tajribalarimni DMT amaliyotida g'oyalarga safarbar qilgan holda taqdim etishga umid qilaman”, – degan edi muallif.

Bugungi kunda tizimlar nazariyasi ko'pchilik ruhiyat salomatligi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarga tanish, chunki u oilaviy terapiyaning asosi hisoblanadi. Biroq tizimlar nazariyasi transditsiplinar tushuncha hisoblanib, fanlardan, xususan, fizika va biologiyadan kelib chiqqan (Von Bertalanffi 1968-yil, u immunologiya va kompyuter texnologiyalari kabi turli sohalarda ishlagan). Tizimlar nazariyasi guruhlar, oilalar, biologik, ijtimoiy va individual ko'rinishga ega jarayonlar o'zaro ta'sir qiluvchi tarmoqlar sifatida, yaxlitlik qismlar yig'indisidan ko'proq; har biri faol gomeostaz bilan “butun” (muvozanat o'rtasidagi o'zaro ta'sir); qoidalar, o'tkazuvchan chegaralar va boshqa tizimlar va munosabatlar bilan (Schefflen Bilan

1972-y.). Tushunchalar raqs-harakat terapevtlariga, masalan, harakat xatti-harakati shu vaqtda ma'no kasb etishini tushunishga imkon beradi va bir vaqtning o'zida bir nechta darajalar (Davis 1990-y.) va bu orqali klinik baholash, harakat o'zaro, madaniy, rivojlanish, anatomik va hisobga olish kerak psixologik jihatlar (Dulicai 1995-y.). Tizimlar nazariyasi biopsixosotsial modelni asoslaydi va tibbiy kontekstda DMT amaliyotidan xabardor qiladi. Qisqacha sharhi tizimlarning xususiyatlari qandayligini ta'kidlashi mumkin.

Yevropalik olimlar Tapp va Warner (1985) tizimlarning oltita xususiyatini belgilaydi: yaxlitlik, nerarxik tashkil etish, o'zaro bog'liqlik, o'zini o'zi saqlash, faollik va o'zini o'zi o'zgartirish. Ulardan uchasi to'g'ridan-to'g'ri raqs-harakat terapiyasi uchun mantiqiy asosga olib keladi hamda umumiy sog'liqni saqlashdagi roli katta hisoblanadi. Birinchidan, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishni tushunish kishini jihazlaydi, ikkinchidan, inson salomatligi va kasalliklarining fiziologik dinamikasini baholash uchun xizmat qiladi. Buyuk Britaniyalik olim Katy Dymoke tadqiqot ishida raqs harakati psixoterapevti chuqur o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan mijoz bilan ishlashning chuqurlashtirilgan misolini taqdim etadi. Tadqiqotchi Buyuk Britaniyaning Milliy sog'liqni saqlash xizmati tomonidan homiylik qilingan doktorlik dissertasiyasi tajribalari va klinik natijalaridan kelib chiqadi. Jarayon davomida teginish hodisalari qanday boshlanganligi va amalga oshirilganligi tavsiflari; teginish hodisalarining keyingi toifalari o'z-o'zidan yo'naltirilgan, passiv yoki o'zaro; terapevtik jarayonni sharhlash va muhokama qilish kabilar. Ko'rib turganimizdek, teginish hodisalari mijozning ruhiy iztirobi, jarohati, qobiliyatsizligi va boshqa jarayonlarga yordam beradi.

Bugungi globallashtirish sharoitida mamlakatimizda maxsus ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, imkoniyatlari cheklangan bolalarda ijtimoiy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Ya'ni, imkoniyatlari cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularning ikkilamchi nuqsonlarini korreksiyalash, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning ilmiy-nazariy, metodik asoslari S.Sh.Aytmetova, L.R.Mo'minova, R.Sh.Shomaxmudova, G'.B.Shoumarov, K.Mamedov, M.I.Sagatov, Sh.M.Amirsaidova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuxammedova, P.M.Pulatova, M.F.Xakimova, M.P.Xamidova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida qator olimlar, jumladan, A.N.Graborov, E.Segen, G.M.Dulnev, N.D.Levitov, V.V.Kashenko, O.I.Kukushkina, V.P.Myasishev, B.I.Pinskiy, Y.A.Kovalev, K.N.Kornilov, N.P.Pavlov, S.L.Mirskiy, A.M.Sherbakov, V.A.Shinkarenko, K.K.Platonov, N.N.Malofeyevning ilmiy izlanishlarida imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, ularning hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va malakalarini, oddiy mehnat uquvlarini rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Xoreografik ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bilim, ko'nikma va malakalarni o'qituvchi ta'sirida bosqichma-bosqich, tizimli va izchil ravishda bolalarda shakllantirishdir. Ushbu tamoyil o'quvchilarda vazifalarning murakkabligini oshirish va vazifalarni ko'paytirish orqali unga bog'liq aqliy funksiyalarning namoyon

bo'lishiga qo'yiladigan talablarni muntazam ravishda oshirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Nogiron bolalar bilan ishlashda optimal yuklamani tanlash muhim, ya'ni bu organizmdagi adaptiv o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan intensivlikning minimal qiymatini anglatadi. Kuchliroq ta'sirlanish haddan tashqari zo'riqishni keltirib chiqaradi, yoki haddan tashqari talablar bilan fiziologik imkoniyatlarning ortiqcha bo'lishiga va organizmning normal ishlashi buzilishiga olib keladi.

Raqs mashg'ulotlarining nogiron bolalar organizmiga fiziologik ta'sirini baholashda funksiyalarini tartibga solish bo'yicha markaziy yetuklik darajasi, fiziologik tizimlarning yoshga bog'liq rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Nogiron bolalar xoreografiyasida tuzatish va tarbiyaviy ishlar e'tibor va yodlashni rivojlantirish, idrok va tafakkurni shakllantirishga, shuningdek, shaxsning ayrim xususiyatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Bugungi kunda o'qituvchilar va bolalar ijodiy jamoalari rahbarlari oldida turgan muammo, yangi texnologiyalardan foydalangan holda, bolalarning (jismoniy, psixologik, intellektual) rivojlanishi masalasiga yanada samarali yondashishga imkon beradigan maxsus metodlarni topish va ulardan foydalanishdir. Ushbu mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, nogiron bolalarning ko'nikmalarini rivojlantirish, ikkinchidan, rivojlanish texnikasining yetarlicha bo'lmagan usullarini rivojlantirishda mavjud qarama-qarshilikni hal qilish kerakligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya mashg'ulotlari orqali rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi»** deb nomlangan bo'lib, unda imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirish imkoniyatlari, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirishga doir madaniy tadbirlarni loyihalash va rejalashtirish, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi yoritilgan.

Xoreografiya faoliyatining asosiy vazifasi – bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish, ilgari xoreografiya darslarida olgan ko'nikmalaridan foydalanib, musiqiy va motorli obrazlar yaratish qobiliyatidir. Darslarning ahamiyati nogiron bolalar psixofizik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Bugungi kunda oldimizda turgan muammo - bu yangi texnologiyalardan foydalangan holda bolalarning rivojlanishi (jismoniy, psixologik, intellektual) masalalariga samaraliroq yondashishga imkon beradigan maxsus noan'anaviy usullarni topish va ulardan foydalanish. Ishimizda quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanildi: xoreoterapiya; raqsdan logotip ritmi; raqs faoliyatida ertak terapiyasi.

Xoreoterapiya (raqs terapiyasi) – raqs va turli xil musiqa ostida harakatlanish orqali faol ish. Aqliy qo'loqligi bo'lgan bolalar, xuddi oddiy bolalar singari, psixologik komplekslardan, mushak qisqichlaridan va o'ziga ishonmaslikdan aziyat chekadi. Raqs mashg'ulotlari his-tuyg'ularni ifoda etish, ko'plab komplekslardan xalos bo'lish, hissiy holatni barqarorlashtirish imkoniyatini beradi. Xoreoterapiya - bu yumshoq mashq qilish texnikasi, ammo sog'liqqa yordam beradigan mashqlar. Nutqni rivojlantirish bolaning harakat faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Oyoqlar, magistral, qo'llar, bosh

uchun mashqlarning aniq dinamik bajarilishi artikulasiya a'zolari: lablar, til, pastki jag va boshqalar harakatini yaxshilaydi.

Logoritmika umumiy ohangga, vosita mahoratiga, kayfiyatga ta'sir qiladi, markaziy asab tizimining asab markazlarining harakatchanligini o'rgatish va miya yarim korteksini faollashtirishga yordam beradi, diqqatni, uning konsentrasiyasini, hajmini, barqarorligini, tarqalishi va xotirasini, vizual, eshitish qobiliyatini, harakatni rivojlantiradi. Ritm nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixofizik sohasidagi turli xil og'ishlarga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Logotip ritmining maqsadi – nutq buzilishlarini raqs harakatlari va musiqa elementlarini kiritish bilan motor sohasini rivojlantirish va tuzatish orqali bartaraf etish. Nutq terapiyasi ritmikasing tuzatish va nutq terapiyasi ishining tarkibiy qismlaridan biri sifatida alohida ahamiyatini belgilaydigan eng muhim vazifa - nutqning tizimli rivojlanmaganligi, mushaklar-skelet tizimining buzilishi bo'lgan bolalarning sezgi va harakatlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Psixofizik va nutq rivojlanishida sustkashlikka uchragan bolalar uchun raqsda logoritmik tadbirlarni rejalashtirishda quyidagi ish yo'nalishlari mavjud:

to'g'ri nafas olishni shakllantirish – to'g'ri fiziologik va nutqiy nafasni shakllantirish, rivojlantirish va o'qitishga qaratilgan mashqlar (“Salyutchalar” o'yini).

Ritm tuyg'usini rivojlantirish - mashqlar, musiqiy va didaktik, ritmik o'yinlar, ritm va fonematik idrok, ovoz kuchini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar bilan nutq o'yinlari (“Qiziq tovushlar”, “Samolyotlar”, “Qarg'alar” o'yinlari).


Umumiy motorli ko'nikmalarni rivojlantirish – umumiy harakatlanish va muvofiqlashtirish funksiyalarini rivojlantirish va tuzatishga qaratilgan dinamik o'yinlar va mashqlar (“Snowflakes” o'yini).

Artikulyatsiya va yuz motorikasini rivojlantirish – talaffuz apparati, yuz mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar (artikulation gimnastika).

Nozik vosita mahoratini rivojlantirish - ingichka raqamli motorli ko'nikmalarni rivojlantirish va tuzatishga qaratilgan nutq hamrohligida yoki har xil narsalardan foydalangan holda barmoq o'yinlari va mashqlari (“Mening oilam” o'yini).

Har qanday logoritmik faoliyatni ishlab chiqishda ishda samaradorlikka erishishning asosiy prinsipi har bir bola, uning yoshi, psixofiziologik, motor va nutq qobiliyatlariga individual yondashish hisoblanadi. Bundan tashqari, logotip ritmini yanada muvaffaqiyatli bajarish uchun psixologik va pedagogik shartlar bajariladi: qulay psixologik muhitni yaratish, doimo bolalarning e'tiborini jalb qilish va ularning mashq bajarishga qiziqishini uyg'otish. Bolalar bilan muloqotni to'g'ri tashkil etish muhimdir. Har bir bolaga nisbatan xayrixohlik, diqqat bilan qarash muvaffaqiyatli ishning kalitidir.

Innovatsion metodlar quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: yetakchilik va dialogik qobiliyatlarni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari; ijodiy faoliyatning pedagogik jihatlari; jamoada shaxslararo muloqotni rivojlantirish usullari; raqs guruhining jamoaviy ijodiy mahsulotini yaratish jarayonida integratsiya; xoreografiya yordamida ijodiy muhit yaratish usullari. Tadqiqotchining innovatsion tajribasi – raqs kombinatsiyalarini o'rganishning murakkab usulini qo'llash quyidagilarni o'z ichiga oladi:



**3-rasm. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini xoreografiya san'ati orqali rivojlantirish modeli**

vizual komponent (o'qituvchining o'zi tomonidan materialni vizual tarzda taqdim etish, video material asosida yangi raqs harakatlari bilan tanishish, namunali raqs guruhlarini ko'rish);

nazariy komponent (bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda harakatlarni bajarish qoidalarini tushuntirish);

amaliy komponent (raqs kombinatsiyasining elementlarini o'rganish va ishlab chiqish, takroriy takrorlash bilan mustahkamlash, mushaklarning xotirasini o'rgatish; men amaliy mashg'ulotlarda videofilmlardan foydalanaman);

reflektiv komponent (ishning afzalliklari va kamchiliklarini baholashga imkon beradigan tahlil qilish va taqqoslash uchun amaliy mashqlarning videoyozuviga murojaat qilishni o'z ichiga oladi; shuningdek, uy vazifalariga yo'naltirilganlik, o'rganilgan kombinatsiyalarni aqliy takrorlash).

Nogiron bolalar bilan ishlash jarayonida asosiy mezonlarga e'tibor qaratiladi: muvofiqlashtirish, ya'ni harakatlarning izchilligi. Har qanday harakat muvofiqlashtirishni talab qiladi. Muvofiqlashtirish – bu faqat o'qitish, mashq qilish orqali rivojlanadigan sifat; mushaklarning kuchi va chidamliligi – mushak ishini iloji boricha uzoqroq bajarish qobiliyati. plastitsizm va moslashuvchanlik – mashqlarni katta amplitudada bajarish qobiliyati; motor xotirasi – tavsiya etilgan harakatni yodlash, o'zlashtirish va takrorlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning xoreografiya mashg'ulotlari orqali tayanch harakatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (1-rasm).

Xoreografiya mashg'ulotlari bola shaxsiyatining uyg'un rivojlanishiga hissa qo'shadi, chunki bolalar nafaqat raqsga tushishni, balki boshqa ishtirokchilarga nisbatan sezgir, diqqatli bo'lib, uyatchanlik, qattiqqo'llikdan xalos bo'ladi, ularning yutuqlari va boshqa bolalarning muvaffaqiyatlaridan zavqlanishni o'rganadi.

“Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan multimedia mahsulotini yaratish” mavzusidagi grant loyiha muallifi sifatida hamda dissertasiya mavzumizga oid ilmiy izlanishlarim doirasida “Zamin” fondi tomonidan “Biz turlimiz. Biz tengmiz” shiori ostida tashkil etilgan inklyuziv konsert dasturiga tayyorgarlik ishlarida Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashrif buyurgan “Imkon” inklyuziv maktab o'quvchilaridan iborat raqs jamoasi bilan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida olib borilayotgan raqs sahna lashtirishda ko'maklashib, nogironligi bo'lgan bolalarga xos raqs harakatlari ustida amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

**Dissertatsiyaning “Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning xoreografiya mashg'ulotlari orqali tayanch harakatlarini rivojlantirishning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tayanch harakatlarini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlarining natijalari yoritilgan.

